

YILLIK BYUDJETDAN STRATEGIK MOLİYAVIY REJALASHTIRISHGA O‘TISH: O‘ZBEKISTONDA O‘RTA MUDDATLI FISKAL SIYOSAT TAJRIBASI

Kulmatov Chori Anorovich

Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universitetining

“Iqtisodiyot” kafedrası dotsenti i.f.n

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 10.01.2026

Revised: 11.01.2026

Accepted: 12.01.2026

Maqolada mamlakatimizda o‘rta muddatli byudjet-soliq siyosati strategiyasini yuritish, davlat byudjetini rejalashtirish tizimi, byudjetlararo munosabatlar, o‘rta muddatli byudjetni rejalashtirish modellari va fiskal cheklovlar masalalari yoritilgan.

KALIT SO‘ZLAR:

*O‘rta muddatli
byudjet rejalashtirish,
fiskal siyosat, davlat
byudjeti, fiskal
barqarorlik, byudjet
taqchilligi,
makroiqtisodiy prognoz,
byudjet jarayoni,
byudjetlararo
munosabatlar, fiskal
cheklovlar, strategik
moliyaviy rejalashtirish,
Medium-Term
Expenditure Framework
(MTEF), Medium-Term
Budget Framework
(MTBF), Medium-Term*

*Fiscal Framework**(MTFF)*

Davlat iqtisodiy siyosatining muhim maqsadlaridan biri, iqtisodiy va ijtimoiy sohani rivojlantirishda barqarorlikni saqlashdir. O'tmishda bu maqsad moliyaviy barqarorlik deb tushunilgan bo'lsa, hozirgi kunda o'rta va uzoq muddatda butun ijtimoiy-iqtisodiy tizimning barqaror rivojlanishi masalasi ushbu siyosiy maqsadga erishishning asosiy mezonidir. Joriy amaliyotda davlat byudjeti rejalashtirish "indeksatsiya" usulidan keng foydalangan holda, har yili o'tkaziladi. Byudjet buyurtmalari byudjet tasnifidagi ma'lumotlar bo'yicha o'tgan yillardagi mablag'larni indeksatsiya qilish yo'li bilan shakllanadi. Standartlar va tarmoq ko'rsatkichlari asosida ish haqi va ish haqidan ajratmalar xarajatlari, kommunal xizmatlar hamda investitsiya dasturlarini qabul qilishdan kelib chiqadigan xarajatlar rejalashtirilgan.

Davlat byudjetini rejalashtirish tizimi byudjetlararo mutanosiblikni ta'minlashga yo'naltiriladi. Biroq makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish dasturlarini amalga oshirishda yillik rejalashtirish salohiyati juda cheklangan. Ya'ni, byudjet mablag'larini taqsimlovchilar va byudjet mablag'laridan foydalanuvchilar rejalashtirilgan yilda belgilangan mablag' miqdoridan chiqib keta olmaydi.

Yillik rejalashtirish byudjet intizomini ta'minlash uchun muhimdir. Lekin bunday fiskal intizomning afzalliklari bir yillik muddatga cheklanadi. Yillik byudjetni daromad va xarajatlar tasdiqlanishi pirovad natijada makroiqtisodiy sharoitlarga mos kelmaydigan kamchilikka olib keladi. Bu esa o'z navbatida makroiqtisodiy o'zgarishlar va ularning fiskal daromadlarga, hozirgi kunda davlat byudjeti bo'yicha qabul qilinadigan qarorlarning kelajakdagi byudjetlarga ta'sirini baholash imkonini bermaydi. Shundan kelib chiqib, davlatlar o'z rivojlanishida o'rta muddatli byudjet rejalashtirish mexanizmidan keng foydalanadi.

Dunyo mamlakatlari o'rta muddatli byudjetni rejalashtirishni byudjet jarayoniga joriy etishidan quyidagi maqsadlarni ko'zlaydi:

1. Davlat mablag'larining barqarorligini mustahkamlash;
2. Samarali resurslarni taqsimlashni rag'batlantirish;
3. Resurslardan yanada samarali foydalanishga ko'maklashish [2].

Yuqoridagi maqsadlarga erishish uchun xalqaro terminologiyada o'rta muddatli tizimlar deb ataladigan o'rta muddatli byudjetni rejalashtirishning turli modellari ishlatiladi. Bunda

o'rta muddatli istiqbolda makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va byudjet siyosati asosida, byudjet ko'rsatkichlarining yuqori chegaralari belgilanadi.

1-jadval

O'rta muddatli fiskal, byudjet va xarajatlar chegaralari [2]

Prognozlar.	Chegaralar					
YalM prognozlari.	Oʻrta muddatli fiskal chegara (The medium-term fiscal framework (MTFF)).	Oʻrta muddatli byudjet chegarasi (The medium-term budget framework (MTBF)).	Oʻrta muddatli chegara (The medium-term expenditure framework (MTEF)).			
Inflyasiya prognozlari.						
Yalpi xarajatlar prognozlari.						
Yalpi daromadlar prognozlari.						
Xarajatlar prognozini kengaytirish.						
Funksional tasnif boʻyicha Xarajatlar prognozini kengaytirish.						
Daromad turlari boʻyicha prognozlari.						
Dasturlar boʻyicha xarajatlar prognozlari.						
Prognozlar natijalari.						

O'rta muddatli chegaralar turli darajadagi tafsilotlarga ega bo'lishi va turli maqsadlarga erishishi mumkin, lekin quyidagi ketma-ketlikda aniq shakllanishiga e'tibor qaratiladi:

- o'rta muddatli byudjet chegarasi (O'MBCh yoki Medium term fiscal framework) byudjetning daromad va xarajatlar qismlarini umumiy asosini belgilagan holda, davlat moliyasining barqarorligini mustahkamlashiga;
- o'rta muddatli byudjet chegarasi (O'MBCh yoki Medium term budget framework) byudjet daromad va xarajatlarining batafsilroq chegarasini belgilaydi va resurslarni yanada samarali taqsimlashni rag'batlantirishga qaratiladi;
- o'rta muddatli dastur chegarasi (O'MDCh yoki Medium term program framework) byudjetni dastur va loyihalar bilan aniqlaydi va resurslardan unumli foydalanishni rag'batlantirishga qaratiladi.

Yuqorida ko'rsatilgan tizimlarning har biri 1-jadvalda keltirilgan kelajakka oid ayrim ko'rsatkichlarni belgilaydi. Jadvalda keltirilgan o'rta muddatli chegaralar o'rta muddatli byudjetni rejalashtirishning konseptual asosini tashkil etadi.

Ushbu asosda ishlab chiqarilgan modellar mamlakatlar bo'yicha farq qiladi, lekin ular ikkita asosiy modelga ajratiladi (2-jadval).

2-jadval**O'rta muddatli byudjetni rejalashtirish modellari**

Modellar	Mamlakatlar	Davr
O'rta muddatli byudjet tizimi va yillik byudjet strategik	Yel mamlakatlari, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Armaniston, Ukraina, Belarus	3-4 yil
Ko'p yillik byudjet tizimi	Rossiya, Qozog'iston	3 yil

Manbaa: xalqaro moliya tashkilotlarining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

1. O'rta muddatli byudjet tizimi va yillik byudjet. Ushbu model bilan byudjet bir yil muddatga tuziladi, biroq ayni paytda, daromad va xarajatlar (turli bo'limlarda, 3-4 yil) uchun o'rta muddatli cheklashlar (chegaralar) belgilanadi.

2. Ko'p yillik byudjet. Byudjet o'rta muddatga (3-5 yil) "qaynoq" asosida tayyorlanadi. Bu shuni anglatadiki, har yili byudjet oldindan qabul qilingan ko'p yillik byudjetga bir yil qo'shib, bir necha (3-5) yilda qabul qilinadi.

Fiskal barqarorlikni ta'minlash maqsadida byudjet taqchilligini kamaytirish o'rta muddatli istiqbolga mo'ljallangan fiskal siyosatning bosh maqsadlaridan biri bo'lib qolmoqda. 2025 yilda Konsolidasiyalashgan byudjet taqchilligi 49,3 trln so'm yoki YaIMga nisbatan 3 foizni tashkil etishi prognoz qilinmoqda.

Davlat moliyasining barqarorligini ta'minlash maqsadida o'rta muddatli istiqbolda byudjet taqchilligini bosqichma-bosqich qisqartirish ko'zda tutilmoqda. 2025 yilda Konsolidasiyalashgan byudjet 49,3 trln so'm (YaIMga nisbatan 3,0 foiz), 2026-2027-yillardagi mo'ljallarda mos ravishda 55,5 trln so'm (YaIMga nisbatan 3,0 foiz) va 64,1 trln so'm (YaIMga nisbatan 3,0 foiz) taqchillik bilan prognoz qilinmoqda.

Dunyo amaliyotida fiskal strategiya ko'proq qo'llaniladi va u har bir mamlakatning o'ziga xos xususiyatiga mos keladi. Ko'pgina rivojlangan davlatlar o'z byudjetini bir yil davomida qabul qiladi, lekin o'rta muddatli byudjet doirasidan chetga chiqishga nisbatan jiddiy cheklovlar mavjud.

Oʻrtacha muddatli fiskal cheklovlar, oʻrta muddatli moliyaviy rejalar, istiqbolli reja va boshqalar. Turli atamalar qoʻllaniladi, ammo nomning qanday boʻlishidan qatʼi nazar, oʻrta muddatli davrda oʻrta muddatli byudjet daromad va xarajatlarining umumiy cheklovlarini aniqlash funksiyasi amalga oshiriladi.


Ikkinchi model fiskal intizomga, umuman, iqtisodiyotning rivojlanishidagi barqarorlikka, shuningdek, davlat byudjetiga koʻp yillik byudjetni tayyorlashda katta yuk boʻlishiga bogʻliqligi sababli, keng tarqalmagan.

Umuman olganda, oʻrta muddatli byudjetni rejalashtirish jarayoni ikkita komponentni oʻz ichiga oladi: strategik “yuqoridan pastga” va vazirliklararo “pastdan yuqoriga” (3-jadval).

Strategik komponent ("yuqoridan pastga") sanoat tomonidan (funksional tasnif boʻyicha) yoki vazirliklar tomonidan oʻrnatilishi mumkin boʻlgan umumiy byudjet ramkalarini va oʻrta muddatli tomlarni aniqlashni oʻz ichiga oladi. Haqiqatda, makroiqtisodiy prognozlar modeliga asoslangan odatga koʻra, 3-4 yil davomida yigʻiladigan byudjet tuziladi.

Oʻrta muddatli yuqori darajadagi byudjetni rejalashtirish makroiqtisodiy munosabatlarni qamrab olishning yaxlitligi va toʻliqligini taʼminlashga asoslangan boʻlib, byudjetning iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari bilan oʻzaro hamkorligini aniq koʻrsatib beradi.

Oʻrta muddatli byudjetni rejalashtirish jarayoni

Vazirlik komponenti ("pastdan yuqoriga") byudjet soʻrovi shaklida 3-4 yil mobaynida vazirlik va idoralarning xarajatlar ehtiyojlarini belgilash		Strategik komponent ("yuqoridan pastga") davlat byudjetining yuqori chegaralari 3-4 yil ichida makroiqtisodiy prognozlar modellar orqali aniqlanadi	
---	---	---	---

Manbaa: mualliflar ishlanmasi.

Vazirlik komponenti («pastki yuqoridan») vazirliklar va idoralarning byudjetga 3-4 yilgacha boʻlgan ehtiyojini belgilaydi va byudjet soʻrovi shaklida taqdim etiladi. Ushbu yondashuv vazirliklar oʻz byudjetlarini tayyorlash va srategik boshqarishda salohiyatni oshirishga yordam beradi.

1-jadval

**O'rta muddatli byudjetni rejalashtirish doirasida byudjet jarayoni
ishtirokchilarining o'rni**

Ishlab chiqishga mas'ul Organ	Parlament roli	Mamlakatlar
Moliya vazirligi	Tasdiqlaydi	Avstriya, Avstraliya, Fransiya, Rossiya, Qozog'iston
	Ma'lumot uchun qabul qiladi	Yaponiya, Ukraina
Tarmoq vazirliklar	Ma'lumot uchun qabul qilinadi	Buyuk Britaniya, Kanada, Yangi Zelandiya

Manba: mualliflar ishlanmasi.

“Pastdan yuqoriga” sarf-xarajatlarining ehtiyojlarini aniqlashda xarajatlar yillar va yangi faoliyat xarajatlari bo'yicha o'zgarmay keladigan qattiq (bazaga) bo'linadi. Ushbu ajratish mavjud (o'zgarmas) siyosatni davom ettirish va o'rta muddatda hukumat siyosatini o'zgartirish bilan bog'liq xarajatlarning moliyaviy ta'sirini baholash uchun zarur.

Jamg'arilgan byudjetni “yuqoridan pastga” va byudjet so'rovlarini “pastdan yuqoriga” tayyorlagandan so'ng, ulardagi mablag'lar bo'yicha vazirliklar/idoralarining ehtiyojlari to'plangan byudjet imkoniyatlarini hisobga olgan holda, byudjet mablag'lariga aylantirilganda, ularni muvofiqlashtirish boshlanadi.

O'rta muddatli byudjetni rejalashtirishdagi asosiy o'rin Moliya vazirligi yoki tarmoq vazirliklariga tegishli. O'rta muddatga parlamentga taqdim etilgan byudjet loyihasi boshqa maqomga ega bo'lishi mumkin: ba'zi davlatlarning parlamentlari uni axborot uchun qabul qiladilar, boshqa mamlakatlar parlamentlari uni qabul qiladilar. O'rta muddatli byudjetlar yoki ko'p yillik byudjetlar byudjet bilan birgalikda, axborot yoki tasdiqlash uchun Parlamentga taqdim etiladi (4-jadval).

O'rta muddatli byudjetni rejalashtirish quyidagi yondashuvlarini o'z ichiga oladi:

- byudjetni rejalashtirishning o'rta muddatli sikli “yuqoridan pastga” yo'naltiriladigan, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash vazifalari va aniq strategik mo'ljallar bilan bog'langan resurslar majmuini o'zida aks ettiradi;
- amaldagi yoki bo'lg'usi ustuvor vazifalarni amalga oshirish uchun joriy va o'rta muddatli xarajatlarning baholari va hisob-kitoblari “pastdan yuqoriga” yuboriladi;
- ko'p karrali qarorlar qabul qilish jarayoni hisob-kitob qilingan xarajatlarni mavjud

(prognozlashtirilayotgan) resurslar bilan bog'lashni ta'minlaydi.

Shunday qilib, o'rta muddatli byudjetlashtirish borasida xorij tajribasidan kelib chiqib, O'zbekistonda o'rta muddatli moliyaviy rejani shakllantirish jarayoniga quyidagi to'rtta elementga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- ko'p yillik yoki o'rta muddatli moliyaviy strategiya ishlab chiqish;
- byudjet jarayoni mobaynida daromadlar va xarajatlar bo'yicha ko'p yillik baho (prognoz)larni tayyorlash;
- ko'p yillik moliyaviy reja ko'rsatkichlarini bir yildan so'ng, oldinga "siljitish" yoki "o'tkazish" metodologiyasini ishlab chiqish;
- ko'p yillik byudjetni shakllantirish va qabul qilish jarayonida qonunchilik organlarining rolini belgilash.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining O'RQ 742-sonli "O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida" gi qonuni, 2021 yil 30 dekabr.
2. Filc,G., & Scartascini,C. (2010). Medium-Term Frameworks and the Budget Process in Latin America1 Development Effectiveness and Results-Based Budgeting.
3. Djumaniyazov Sh.R. Xufiyona iqtisodiyot va uning oqibatlarini kamaytirish yo'llari. "O'zbekiston statistika axborotnomasi" ilmiy elektron jurnali. 2021 yil, 2-son.
4. https://api.mf.uz/media/document_files/Budjet_P_25_uz.pdf